

TILNING LISONIY MANZARASIDA EVFEMIZMLARNING O'RNI: ANTROPOSENTRIK YONDASHUV

Mansurova Madina Abdikarim qizi,

O'zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika va O'zbek filologiyasi fakulteti

Lingvistika: o'zbek tili magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilning olam lisoniy manzarasini shakllantirishdagi o'rni evfemizmlar misolida, zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo'nalishi bo'lgan antroposentrik yondashuv asosida tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi evfemizmlarni nafaqat nutqni yumshatish vositasi, balki inson tafakkuri va madaniyatini aks ettiruvchi lisoniy fenomen sifatida o'rganish zarurati bilan belgilanadi. Maqolada o'zbek tili evfemizmlarining nazariy-metodologik asoslari ko'rib chiqiladi hamda ularning milliy mentallik bilan bog'liqligi, assotsiativ xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ishda ilk bor evfemizmlar asosida shakllangan paremiologik birliklar – maqol va frazeologizmlarning lingvomadaniy tabiati ochib berilgan. Tahlillar natijasida evfemizmlarning inson markazli lisoniy manzaradagi o'rni, ularning ijtimoiy va madaniy normalarni tartibga solishdagi funksional imkoniyatlari bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: Olamning lisoniy manzarasi, evfemizm, antroposentrizm, lingvokulturologiya, milliy mentallik, paremiologiya, assotsiativ tahlil.

Annotation. This article investigates the role of euphemisms in shaping the linguistic picture of the world through an anthropocentric lens, which is a key priority in modern linguistics. The relevance of the study is determined by the need to explore euphemisms not merely as tools for softening speech but as linguistic phenomena reflecting human cognition and culture. The article examines the theoretical and methodological foundations of euphemisms in the Uzbek language and analyzes their connection with the national mentality and associative characteristics. Furthermore, for the first time, the linguo-cultural nature of paremiological units – proverbs and phraseological units formed on the basis of euphemisms – is revealed. As a result of the analysis, scientific conclusions are formulated regarding the place of euphemisms in the human-centered linguistic landscape and their functional potential in regulating social and cultural norms.

Keywords: linguistic picture of the world, euphemism, anthropocentrism, linguoculturology, national mentality, paremiology, phraseology, associative analysis, speech etiquette, linguistic personality.

Аннотация: В данной статье исследуется роль эвфемизмов в формировании языковой картины мира на основе антропоцентрического подхода, являющегося приоритетным направлением в современной лингвистике. Актуальность исследования обусловлена необходимостью изучения эвфемизмов не просто как средств смягчения речи, а как лингвистического феномена, отражающего человеческое мышление и культуру. В статье рассматриваются теоретико-методологические основы эвфемизмов в узбекском языке, анализируется их связь с менталитетом и ассоциативные характеристики. Также в работе впервые раскрывается лингвокультурная природа паремиологических единиц – пословиц и фразеологизмов, сформированных на основе эвфемизмов. В результате анализа сформулированы научные выводы о месте эвфемизмов в человекоцентрической языковой картине мира и их функциональных возможностях в регулировании социальных и культурных норм.

Ключевые слова: языковая картина мира, эвфемизм, антропоцентризм, лингвокультурология, национальный менталитет, паремиология, фразеология, ассоциативный анализ, речевой этикет, языковая личность.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda lisoniy birliklarni faqatgina lug'aviy ma'no tashuvchisi sifatida emas, balki inson tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy xulq-atvorini aks

ettiruvchi murakkab fenomen sifatida o'rganish ustuvor yo'nalishga aylandi. Xususan, dunyoning lisoniy manzarasini shakllantirishda evfemizmlar o'ziga xos o'rin tutadi. Evfemizmlar nafaqat "noqulay" tushunchalarni yumshatib ifodalash vositasi, balki milliy mentalitet, madaniy filtr va ijtimoiy qadriyatlarni namoyon etuvchi antroposentrik hodisadir. O'zbek tili boy evfemik qatlarga ega bo'lishiga qaramay, uning paremiologik birliklari (maqol va frazeologizmlar) tarkibidagi kognitiv va lingvomadaniy tabiati tizimli ravishda, ayniqsa, antroposentrik yondashuv asosida yetarlicha tadqiq etilmagan. Til – murakkab hodisa. E. Benvenist ta'kidlaganidek, "Tilning o'zligi shu qadar o'ziga xoski, tabiatan uni bir nechta strukturalardan iborat deb baholash mumkin. Ularning har biri umumiy tilshunoslikning yuzaga kelishi uchun asos vazifasini bajarishi mumkin"

Adabiyotlar sharhi. Tilshunoslik tarixida evfemizmlar fenomenini tadqiq etish jarayoni bir necha bosqichli ilmiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu hodisa dastlab tor doiradagi uslubiy vosita sifatida ko'rilgan bo'lsa, keyinchalik keng ko'lami lingvokognitiv tushunchaga aylangan. Dastlabki tadqiqot yo'nalishlarida evfemizmlar bevosita "tabu" (taqiqlangan so'zlar) tushunchasi bilan bog'liq holda o'rganilgan. Ilmiy manbalarda evfemizatsiya jarayoni qo'pol, nojo'ya yoki qo'rqinchli hisoblangan tushunchalarni lisoniy jihatdan yumshatish mexanizmi sifatida talqin etilgan. Bu bosqichdagi izlanishlar asosan so'zlarning lug'aviy ma'nosi o'zgarishi va muqobil birliklarning tanlanish qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qilgan. Keyinchalik, evfemizmlarni ijtimoiy muloqotning tarkibiy qismi sifatida o'rganishga e'tibor kuchaydi. Adabiyotlarda ushbu birliklarning jamiyatdagi turli qatlamlar o'rtasidagi muloqotni tartibga solish, suhbatdoshga nisbatan hurmat ko'rsatish va nutqiy madaniyatni ta'minlashdagi funksiyalari asoslab berildi. Evfemizmlar shunchaki so'z almashtirish emas, balki jamiyatning axloqiy-etik filtri sifatida baholana boshladi. Zamonaviy tilshunoslik paradigmasida evfemizmlar inson tafakkurining mahsuli (antroposentrik hodisa) sifatida tadqiq etilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda urg'u lisoniy birlikdan uni qo'llovchi shaxsga, ya'ni "lisoniy shaxs"ga ko'chdi. Tadqiqotlar evfemizmlarning inson ongida dunyo manzarasini qanday aks ettirishi, milliy mentalitet va madaniy kodlar bilan qanchalik uzviy bog'liqligini ko'rsatib bermoqda. Ayniqsa, assotsiativ maydonlar orqali tushunchalarni qayta nomlash inson kognitiv faoliyatining muhim qismi sifatida e'tirof etilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda evfemizmlarning o'rganilishi antroposentrik yondashuv asosida o'rganilar ekan, ishda zamonaviy tilshunoslikning o'zaro bir-birini to'ldiruvchi bir qator metodlaridan foydalanildi. Jumladan quyidagi metodlar asosiy tadqiqot vositasi sifatida olindi:

Tavsifiy metod. Mazkur usul yordamida o'zbek tilidagi evfemik birliklarning leksik-semantik tabiati, ularning nutqdagi o'rni va qo'llanilish doirasi yoritib berildi. Evfemizmlarning lisoniy manzara tarkibidagi birlik sifatidagi xususiyatlari umumlashtirildi.

Komponent tahlil metodi. Evfemizmlarning ichki ma'no strukturasi o'rganishda ushbu metoddan keng foydalanildi. Bunda har bir evfemik birlik muayyan semalarga (ma'no qirralariga) ajratildi. Komponent tahlil orqali denotativ ma'no (so'zning lug'aviy asosi) va konnotativ ma'no (yumshoqlik, hurmat, andoza kabi qo'shimcha ma'no yuklamalari) o'rtasidagi munosabatlar aniqlandi. Bu esa evfemizmlarning nima sababdan aynan shu kontekstda tanlanganini ilmiy asoslash imkonini berdi.

Qiyoslash metodi. Mazkur metod evfemizmlarning turli nutqiy vaziyatlardagi variantlarini, shuningdek, maqol va frazeologizmlar tarkibidagi o'zgarishlarni o'zaro solishtirishda qo'llanildi. Qiyoslash orqali milliy mentallikning lisoniy in'ikosi, turli yosh yoki ijtimoiy guruhlar nutqida evfemizmlarning qo'llanilish darajasi hamda an'anaviy va zamonaviy evfemik qatlam o'rtasidagi farqlar belgilab olindi.

Semantik-struktur tahlili. Ushbu usul evfemizmlarning ham ma'no (semantik), ham shakliy (struktur) qurilishini yaxlitlikda tadqiq etishga qaratilgan. Bunda evfemik birliklarning qanday so'z turkumlari yoki sintaktik konstruksiyalar asosida hosil bo'lishi, ularning turg'un birikmalar (paremiyalar) tarkibiga kirish mexanizmlari o'rganildi. Semantik-struktur tahlil natijasida evfemizmlarning lisoniy tizimdagi o'rni va ularning nutqiy zanjirdagi o'zaro bog'liqligi kashf etildi.

Natijalar. O'tkazilgan tadqiqot natijasida o'zbek tili evfemik qatlamining antroposentrik tabiati va ularning lisoniy manzaradagi o'rni bo'yicha quyidagi ilmiy natijalar qo'lga kiritildi:

Evfemizmlarning antroposentrik modellashtirilishi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, evfemizmlar shunchaki luksik almashtirish vositasi emas, balki so'zlovchining dunyoni idrok etish usuli bilan bevosita bog'liq. Tadqiqot davomida aniqlangan 150 dan ortiq birliklar inson omili nuqtayi nazaridan quyidagi kognitiv maydonlarga ajratildi:

Ijtimoiy-etik maydon: Insonning jismoniy nuqsonlari va ijtimoiy holatini yumshatuvchi birliklar. Masalan, (ko'rlik, karlik, nogironlik) to'g'ridan-to'g'ri aytish axloqsizlik sanaladi. Katsev bu guruhga "*imkoniyati cheklangan*", "*ko'ngli yarim*", "*zaif*" kabi tushunchalarni kiritadi.[62]

Maishiy-madaniy maydon: Milliy etiket va andoza tushunchalari asosida shakllangan evfemizmlar. Jumladan, "*qo'l yuvib kelish*", "*zarurat bilan chiqish*" kabi ifodalar harakatning bevosita maqsadini yashirib, unga hamroh bo'lgan ikkinchi darajali harakatni (suvga borish, qo'l yuvish) birinchi planga chiqaradi. Bu o'zbek xalqining yuksak madaniyatli, "parda ortidagi" muloqotga moyilligini ko'rsatadi.

Ekzistensial maydon: Hayot va o'lim, kasallik kabi inson ruhiyatiga kuchli ta'sir etuvchi tushunchalarning lisoniy qayta ishlanishi. hayot va o'lim konseptlarining lisoniy voqelanishi alohida o'rin tutadi. Binobarin, "*dunyoga kelmoq*", "*tavallud topmoq*", "*ko'z yorimoq*" kabi frazeologizmlar hayot leksemasi bilan, "*Alloh o'z panohiga olmoq*", "*rixlat qilmoq*", "*bandalikni bajo keltirmoq*" kabi birliklar esa o'lim leksemasi bilan murakkab antisemik munosabat hosil qiladi.[136]

Paremiologik birliklarning lingvomadaniy transformatsiyasi. ilk bor evfemizmlar asosida shakllangan maqol va frazeologizmlarning lingvomadaniy tabiati ochib berildi.

Frazeologik evfemizmlar ko‘p hollarda obrazli ko‘chimlar (metafora va metonimiya) asosida shakllanadi va nutqqa ekspressiv-emosional bo‘yoq beradi. . Xususan, “*ko‘rpasiga qarab oyoq uzatmoq*” va “*tanobini tortmoq*” kabi birliklar shaxsning ijtimoiy imkoniyatlari hamda faoliyat doirasini belgilovchi ma‘nosini ifodalaydi.

Paremiologik evfemizmlar (maqollar) esa xalqning etik normativlarini o‘zida saqlaydi. Tadqiq qilingan maqollarning 40% dan ortig‘ida evfemizmlar ijtimoiy konfliktni yumshatish va didaktik (tarbiyaviy) maqsadlarda qo‘llanilishi aniqlandi. “*Kelin qiz bo‘lmas, kuyov o‘g‘il*”, yoki “*Kelin qildim deb kerilma, Ish buyursa erinma*”, kabi maqollar jamiyatdagi an‘anaviy qarashlar hamda kelin personajiga xos subyektiv ijtimoiy munosabatlarni, uning oiladagi o‘rnini ko‘pincha salbiy yoki cheklovchi konnotatsiyalar orqali ifodalaydi.[267]

Xulosa. O‘zbek tili evfemizmlari olamning lisoniy manzarasini shakllantiruvchi muhim antroposentrik fenomen bo‘lib, nafaqat nutqiy madaniyatni tartibga soladi, balki xalqning kognitiv tafakkuri va milliy-madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi. Tadqiqot davomida evfemizmlarning inson omili bilan uzviy bog‘liqligi, ularning milliy mentallikdagi andoza va hayo kabi tushunchalar asosida shakllanishi hamda assotsiativ maydonlar orqali ijtimoiy optimizmni ta‘minlashi ilmiy asoslandi. Ayniqsa, paremiologik birliklar – maqol va frazeologizmlar tarkibidagi evfemik vositalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, ushbu birliklar xalq donishmandligida axloqiy-etik filtr vazifasini o‘tab, jamiyatdagi kommunikativ jarayonlarni gumanistik tamoyillar asosida muvozanatlashtirishga xizmat qiladi. Binobarin, evfemizmlarni antroposentrik va lingvomadaniy yondashuv asosida o‘rganish tilning lisoniy manzarasidagi yashirin madaniy kodlarni ochishda va milliy dunyoqarashning til tizimidagi in‘ikosini tushunishda fundamental ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Кацев А. М. Языковые табу и эвфемизмы. – Л.: ЛГПИ
2. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent